

**LOYIHANI BOSHQARISHDA SAMARALI KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING
ROLI.****Baratov Asliddin Abduqodir o'g'li***O'zbekiston respublikasi Bank-moliya akademiyasi tингловчиси.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada loyihalarini boshqarishda kommunikatsiya jarayonlarining o'rni, ularning samaradorlikka ta'siri va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, loyihadagi manfaatdor tomonlar o'rtasidagi axborot almashinuvi va loyihaning muvaffaqiyatli yakunlanishida muloqotning tutgan o'rni yoritilgan. Suv xo'jaligida xorijiy investitsiya loyihalari misolida tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: loyiha boshqaruvi, kommunikatsiya, manfaatdor tomonlar, samaradorlik, axborot oqimi.

Abstract: This article analyzes the role of communication processes in project management, their impact on efficiency, and their practical implications. The study explores modern management approaches, information exchange among stakeholders, and the significance of dialogue in ensuring successful project outcomes. The analysis is contextualized through the case of foreign investment projects in the water management sector.

Keywords: Project management, communication, stakeholders, efficiency, information flow.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda ko'plab tashkilotlar o'z faoliyatini loyiha asosida tashkil etishga o'tmoqda. Loyerha asosida boshqaruv, an'anaviy ierarxik tizimlarga nisbatan moslashuvchanlik, tezkor qaror qabul qilish, resurslardan oqilona foydalanish va natijaga yo'naltirilganlik kabi ustunliklarga ega. Xususan, infratuzilma, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, axborot texnologiyalari kabi strategik sohalarda yirik miqyosdagi investitsion loyihalar ushbu boshqaruv modeli asosida amalga oshirilmoqda.

Bunday loyihalarda turli manfaatdor tomonlar – buyurtmachi, investor, pudratchi, konsalting kompaniyalari va davlat idoralari o'rtasidagi hamkorlik murakkab, ko'p bosqichli va yuqori darajada koordinatsiyalashni talab qiladi. Aynan shu nuqtada samarali kommunikatsiya loyihaning asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biriga aylanadi. Kommunikatsiya orqali maqsadlar aniqlashtiriladi, rejalashtirish amalga oshiriladi, qarorlar muvofiqlashtiriladi hamda monitoring va nazorat jarayonlari yo'lga qo'yiladi.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, agar loyiha ishtirokchilari o'rtasida to'g'ri va o'z vaqtida axborot almashinuvi mavjud bo'lmasa, bu muvofiqlashtirilmagan harakatlar, noto'g'ri qarorlar, rejalashtirishdagi xatoliklar va, eng yomoni, loyiha maqsadlariga erishilmasligiga olib keladi. Loyerha doirasidagi kommunikatsion nosozliklar loyihaning

muddati cho'zilishi, byudjetdan ortiqcha sarf-xarajatlar, ishtirokchilar o'rtasida ishonchning yo'qolishi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Shu boisdan, loyihani samarali boshqarishda kommunikatsiya strategiyasi, axborot oqimlarini boshqarish, manfaatdor tomonlar bilan o'zaro doimiy va ikki tomonlama aloqa mexanizmlarini joriy etish zarurati tobora dolzarblashmoqda. Ayniqsa, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarda madaniy tafovutlar, tillar farqi, huquqiy muhit va texnik talablar turlicha bo'lismi sababli, kommunikatsiya jarayonlarini puxta rejlashtirish – loyiha muvaffaqiyatining asosiy kafolatidir.

Mazkur maqolada loyiha boshqaruvidagi kommunikatsiya jarayonlari, ularning asosiy tamoyillari, amaliy jihatlari va suv xo'jaligida xorijiy investitsiya loyihalari asosida o'r ganilgan holatlar asosida tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Kommunikatsiyaning loyihadagi o'rni

Loyiha boshqaruvida kommunikatsiya ikki asosiy vazifani bajaradi:

1. Axborot almashinuvi – qaror qabul qiluvchilarni kerakli ma'lumot bilan ta'minlash;

2. Motivatsiya va muvofiqlashtirish – jamoa ichidagi ishlarni uyg'unlashtirish.

PMBOK Guide (PMI, 2021) ma'lumotlariga ko'ra, loyihaning 90% vaqtini turli darajadagi kommunikatsiyaga sarflanadi. Shuning uchun kommunikatsiya strategiyasini rejlashtirish va amalga oshirish loyiha boshqaruvida muhim jarayondir.

Samarali kommunikatsiya shartlari

Samarali kommunikatsiya quyidagi mezonlarga asoslanadi:

Aniqlik va tushunarlik – murakkab va texnik ma'lumotlar sodda, aniq shaklda yetkazilishi kerak;

O'z vaqtida – kommunikatsiya kechikmasligi lozim;

Tegishlilik – ma'lumotlar faqat kerakli shaxslar doirasida tarqatilishi kerak;

Ikki tomonlama aloqalar – faqat buyruq yoki xabar emas, balki fikr almashinuvi shaklida bo'lismi kerak.

Kerzner (2017) ta'kidlaganidek, kommunikatsiya yo'q bo'lgan joyda nazorat ham, ishonch ham bo'lmaydi.

Suv xo'jaligi loyihalari misolida tahlil.

Suv xo'jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi faoliyatida kommunikatsiya yetakchi o'rinni tutadi. Markaz o'z ish faoliyatida quyidagi vositalardan foydalanadi:

har haftalik yig'ilishlar va hisobotlar;

elektron hujjat aylanishi tizimi;

donorlar, investorlar va ijrochi tashkilotlar bilan doimiy axborot almashinuvi.

Direksiyada o'tkazilgan ichki tahlillarga ko'ra, kommunikatsiyadagi kechikishlar tender jarayonlarining uzayishiga, loyihani boshlash muddatlarining ortishiga olib kelgan (TIVSMM, 2023). Shu sababli, loyihalarning barcha bosqichlarida kommunikatsiyani raqamlashtirish va standartlashtirish tavsiya etiladi.

Takliflar

Kommunikatsiya strategiyasini ishlab chiqish har bir loyiha uchun majburiy bo'lishi kerak;

Axborot oqimini avtomatlashtirish orqali insoniy omillar kamaytiriladi;

Jamoaviy o'quv mashg'ulotlari yordamida ishtirokchilar kommunikatsion ko'nikmalarni mustahkamlashi zarur.

Xulosa

Loyiha boshqaruvida kommunikatsiya – faqat axborot uzatish vositasi emas, balki butun boshqaruvning tayanchi hisoblanadi. Ayniqsa, ko'p tomonlama ishtirokchilarni o'z ichiga olgan, uzoq muddatli va investitsiyaviy loyihalarda bu jarayonni to'g'ri tashkil etish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kerzner, H. (2017) Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling. Wiley.
2. Project Management Institute (2021) PMBOK Guide, 7th ed. Newtown Square, PA: PMI.
3. Turner, J.R. (2009) The Handbook of Project-based Management. McGraw-Hill.
4. Müller, R. And Turner, J.R. (2005) 'The impact of principal-agent relationship and communication on project performance', IJPM, 23(5), pp. 398–403.
5. TIVSMM (2023) Ichki tahliliy hisobotlar to'plami, Suv xo'jaligida investitsiya loyihalari markazi.
6. [Https://center-min-water.uz](https://center-min-water.uz)